# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

**(2019-yil 1-iyun holatiga)**

**Ro'yxatdan o'tgan**

**39,8 ming.**

2019-yilning 1-iyun holatiga 39,8 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,0 foizga o'sgan.

**Faoliyat ko'rsatayotgan**

**34,2 ming.**

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5,1 mingta (17,5 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 34,2 mingtani tashkil etgan.

**Yangi tashkil etilganlar**

**4,6 ming.**

2019-yilning yanvar-may oylarida Toshkent viloyatida 4,6 mingtadan oshiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 mingtaga ko'pdir.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

**(2019-yil 1-iyun holatiga)**




**O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 21,0% oshgan**

2019-yilning 1-iyun holatiga 39,8 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 21,0 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 23,9 % - savdo, 19,3 % - sanoat, 10,6 % - qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 8,1 % - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, 7,4 % - qurilish, 3,5 % - tashish va saqlash, 1,6 % - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,4 % - axborot va aloqa hamda 24,2 % - boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (9517 ta) savdo, (7685 ta) sanoat, (4244 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi,(3231 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (2929 ta) qurilish, (1407 ta) tashish va saqlash, (619 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (551 ta) axborot va aloqa hamda (9659 ta) boshqa faoliyat turlariga to`g`ri kelmoqda.

# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko’rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 34,2 mingtani tashkil etib, o’tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5,1 mingta (17,5 %) ga o’sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



# Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni tumanlar kesimida, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tumanlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'p Zangiota (3673 ta), Qibray (3209 ta) va Toshkent (2362 ta) tumanlari hamda Angren (2021 ta), Chirchiq (2020 ta) shaharlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Ohangaron (814 ta), Oqqo'rg'on (872 ta), Piskent (934 ta), Chinoz (939 ta), Quyichirchiq (989 ta) tumanlari hamda Ohangaron (827 ta), Nurafshon (898 ta), shaharlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

## 2019-yil yanvar-may oylarida 4648 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2226 taga ko'pdir.

### 2019-yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi

**Savdo**
37,1 %

**Sanoat**
21,9 %

**Qurilish**
9,1 %

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**
8,0 %

**Tashish va saqlash**
3,8 %

**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi**
9,2 %

**Axborot va aloqa**
0,8 %

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish**
0,9%

**Boshqa turlari**
9,2 %

Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (1724 ta), sanoat (1020 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (430 ta) va qurilish (422 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (37 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (43 ta) hamda tashish va saqlash (175 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

| | |
|---|---|
| Savdo | 1724 |
| Sanoat | 1020 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 430 |
| Qurilish | 422 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 371 |
| Tashish va saqlash | 175 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 43 |
| Axborot va aloqa | 37 |
| Boshqa turlari | 426 |

# Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda

## (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Zangiota (621ta), Qibray (380 ta), Toshkent (320 ta) tumanlari va Angren (338 ta) shahri hissasiga to'gri keladi. Aksincha, Ohangaron (89 ta), Piskent (98 ta), Quyichirchiq (112 ta) tumanlari hamda Ohangaron (87 ta) shahrida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2017-2019-yillarning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni**




Korxonalar sonining o'sishi, birlikda

# TIJORAT KORXONALARI

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-iyun holatiga)

**Faoliyat ko’rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 28,7 mingtani tashkil qildi**

## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda

Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxona




Oilaviy korxona




Unitar korxona




Aksiyadorlik jamiyati




Boshqalar



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 953 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 276 taga yoki 40,8 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

**(1-iyun holatiga)**




Asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko’rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda






# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 527 tasi qo'shma, 426 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.**






## Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Zangiota 127 ta (jamidagi ulushi 13,3 %), Qibray 98 ta (10,3 %), Yuqorichirchiq 78 tani (8,2 %), Toshkent tumanlarida 66 ta (6,9 %) va Angren shahrida 72 ta (7,6 %), tashkil etilgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Bo'ka, Bekobod 7 tadan (0,7 %), Oqqo'rg'on 9 ta (0,9 %), Piskent va Chinoz tumanlarida 15 tadan (1,6%) hamda Bekobod shahrida 14 ta (1,5%), tashkil etgan.

# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Ko’rinib turibdiki faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to’g’ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish hamda axborot va aloqaga to’g'ri keladi.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar






2019-yilning yanvar-may oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 121 tani tashkil etgan. Bu ko’rsatkich esa o’tgan yilning shu davriga nisbatan 38 taga ko’paygan.

Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 35 ta, Rossiya Federatsiyasi - 22 ta, Turkiya Respublikasi – 15 ta, Qozog’iston Respublikasi va Koreya Respublikasi – 10 tadan korxonalar yangi tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

| | |
|---|---|
| Sanoat | 68 |
| Savdo | 26 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 10 |
| Qurilish | 6 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 |
| Tashish va saqlash | 2 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 1 |
| Boshqa turlar | 7 |

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, asosan sanoatda 68 ta, savdoda 26 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 10 ta, qurilishda 6 ta va 7 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to’g’ri keladi.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda

2019 yil 1 iyun holatiga




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining yillar kesimida o'sish dinamikasi, birlikda



# Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarni yillar kesimida soni, birlikda




2019-yil 1-iyun holatiga viloyatimizda faoliyat ko’rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 28,5 mingtani tashkil etgan. Bu ko’rsatkich o’tgan yilga nisbatan 20,3 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-may oylarida 4,5 mingdan ziyod kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o’tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 2 barobar ko’p tashkil etilgan.

# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar kesimida jamidagi ulushi 1 iyun holatiga

| • Eng katta ulushi | | • Eng kichik ulushi | |
|---|---|---|---|
| Zangiota tumani | **11,3 %** | Piskent tumani | **2,6 %** |
| Qibray tumani | **9,5 %** | Ohangaron shahri | **2,5 %** |
| Toshkent tumani | **7,3 %** | Chinoz tumani | **2,5 %** |
| Angren shahri | **5,9 %** | Nurafshon shahri | **2,5 %** |
| Chirchiq shahri | **5,8 %** | Oqqo'rg'on tumani | **2,4 %** |
| Yuqorichirchiq tumani | **5,5 %** | Ohangaron tumani | **2,2 %** |

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat koʻrsatayotgan jami 28,5 mingta kichik korxona va mikrofirmalarning 7,9 mingta (27,6 %) – savdo, 6,5 mingta (22,8 %) - sanoat, 3,5 mingta (12,5 %) - qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi, 2,6 mingta (9,2 %) - yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar sohasi, 2,4 mingta (8,5 %) - qurilish, 1,2 mingta (4,2 %) - tashish va saqlash, 0,5 mingta (1,6 %) - sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish, 0,4 mingta (1,4 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 3,5 mingtasi (12,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga toʻgʻri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi %



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi**
**9,5**



**Sanoat**
**22,7**



**Qurilish**
**9,4**



**Savdo**
**38,3**



**Tashish va saqlash**
**3,9**



**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**
**8,2**



**Axborot va aloqa**
**0,8**



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish**
**0,9**



**Boshqa turlari**
**6,3**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko’p savdo 1723 ta, sanoat 1020 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 428 ta va qurilish 422 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada 37 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko’rsatishda 42 ta hamda tashish va saqlashda 175 ta tashkil etilgan.

# Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko’p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Zangiota (609 ta), Qibray (375 ta), Toshkent (317 ta) tumanlari va Angren (331 ta) shahri hissasiga to’g'ri keladi. Eng kam Piskent (86 ta), Ohangaron (87 ta), Quyichirchiq (109 ta) tumanlari hamda Ohangaron (80 ta), Nurafshon (111 ta), Yangiyo'l (127 ta) shaharlarida tashkil etilgan.

# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1-iyun holatiga )




# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni tumanlar kesimida soni, birlikda

2019-yil 1-iyun holatiga



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




Faoliyat ko’rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 38,3 % yoki 777 tasi sanoat, 20,7 % yoki 420 tasi savdo, 20,4 % yoki 413 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 12,0 % yoki 243 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,1 % yoki 22 tasi tashish va saqlash, 0,6 % yoki 12 tasi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 0,5 % yoki 11 tasi qurilish, 0,4 % yoki 8 tasi axborot va aloqa hamda 6,0 % yoki 121 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.



# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda




# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




**Toshkent viloyati statistika boshqarmasi**
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi boshlig'i**
**Xasan Igamberdiyev**
**Tel.:71-230-86-84**